



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAkatINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахомович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Furuza Kurbanovna	



MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI

Achilova Firuza Kurbanovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: achilovaf@gmail.com
ORCID: 0000-0002-8358-5416,

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasining tutgan o'rni, o'ziga xos xususiyatlari hamda obyektiv zarurligi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, mintaqada xizmatlar sohasining o'rni va uning rivojlanish zaruriyatini tadqiq etish natijalari asosida tegishli xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: mintaqqa, mintaqqa iqtisodiyoti, xizmat, xizmatlar sohasi, barqaror rivojlanish, tadqiqot.

Abstract. This article examines the role, specific characteristics, and objective necessity of the service sector in ensuring the sustainable development of the regional economy. It also presents scientifically grounded conclusions based on the study of the role and objective importance of the service sector in the region.

Key words: region, regional economy, service, service sector, sustainable development, research.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль, особенности и объективная необходимость сектора услуг в обеспечении устойчивого развития региональной экономики. Также представлены научно обоснованные выводы по результатам исследования роли и объективной значимости сектора услуг в регионе.

Ключевые слова: регион, региональная экономика, услуга, сектор услуг, устойчивое развитие, исследование.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida xizmatlar sohasi mintaqqa iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulot, bandlik va investitsiyalar hajmida yetakchi o'rinlarni egallab, iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylangan.

Mintaqa iqtisodiy tizimida xizmatlar sohasi sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritib, ularning samaradorligi hamda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur soha ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish va bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlash orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Xizmatlar sohasi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, aloqa, moliyaviy xizmatlar hamda turizm kabi yo'nalishlar aholining turmush darajasi va hayot sifatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xizmatlar sohasining izchil rivojlanishi mintaqqa iqtisodiyotining barqaror va muvozanatli taraqqiyotini ta'minlovchi obyektiv zarur shart sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasining o'rni va uning obyektiv zarurligini o'rganish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning nazariy-uslubiy asoslari hamda xizmatlar sohasini rivojlantirish metodologiyasi masalalari xorijiy



olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Jumladan, Robert J. Stimson, Roger R. Stough va Brian H. Roberts [1] mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish nazariyasi va amaliyoti, strategik rejalashtirish, hududiy o'sish omillari hamda xizmatlar sektorining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rnini iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etganlar.

F. Maqnas va R. Shaheen [2] xizmatlar sektorining iqtisodiy o'sishga ta'siri, uning ulushi va dinamikasini empirik-statistik yondashuv asosida tahlil qilgan. Xususan, G20 mamlakatlari misolida xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishdagi rolini baholash hamda raqamli ko'rsatkichlar asosida takliflar ishlab chiqilgan. Juan R. Cuadrado-Roura [3] tadqiqotlarida xizmatlar sanoatining mintaqaviy tahlildagi ahamiyati, YaIM va bandlikdagi ulushi, shuningdek, xizmatlar geografiyasining hududiy iqtisodiy tafovutlarga ta'siri o'rganilgan.

V. Stojkoski, Z. Utkovski va L. Kocarev [4] xizmatlar sektorining iqtisodiy murakkablik va barqaror o'sishdagi rolini, xizmatlar eksportining sifati hamda diversifikatsiyasi orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlarini asoslab berganlar. A. Pike, A. Rodríguez-Pose va J. Tomaney [5] esa mahalliy va mintaqaviy rivojlanish konsepsiyalari doirasida xizmatlar sektorining barqaror hududiy o'sishdagi o'rnini tahlil qilgan bo'lib, iqtisodiyotning xizmatlar qismi ijtimoiy va ekologik o'lchovlar bilan uyg'un holda o'rganilgan. Muratalbegov, Åke E. Andersson va F. Snickars [6] tomonidan mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy o'sishni modellashtirishning an'anaviy nazariy asoslari hamda xizmatlar sektori statistik tahlil uslublari bayon etilgan.

MDH mamlakatlari olimlari ham mazkur yo'nalishda salmoqli ilmiy izlanishlar olib borgan. R. D. Grigorevich [7] xizmatlar sohasini rivojlantirish, xizmatlar iqtisodiyotini boshqarishning strategik yondashuvlari hamda davlat va mahalliy boshqaruv organlarining rolini Moskva va Sankt-Peterburg shaharlari misolida tahlil qilgan. O. N. Kostryukova, L. V. Xoreva va Y. V. Shokola [8] MDH mamlakatlarida xizmatlar bozori tuzilmasi, eksport-import jarayonlari va sohaning umumiy iqtisodiyotdagi o'rnini statistik ma'lumotlar asosida yoritgan. G. A. Karpova [9] monografiyasida xizmatlar bozorining nazariy-amaliy jihatlarini hamda barqaror rivojlanish va raqamli transformatsiya metodologiyasini tadqiq etgan.

M. V. Anatolevich [10] mintaqa iqtisodiy tizimida pullik xizmatlar sohasini davlat va hududiy darajada tartibga solish mexanizmlarini o'rganib, Sankt-Peterburg misolida uning tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan. A. X. Nurmatov [11] esa bozor iqtisodiyoti sharoitida pullik xizmatlar sohasining hududiy rivojlanish xususiyatlarini Tojikiston Respublikasi misolida o'rganib, tarmoqlar kesimidagi tarkibiy o'zgarishlar va hududlararo tafovutlarni ilmiy asosda tahlil qilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan ham xizmatlar sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tadqiq etilgan. D. T. Xudayberganov [12] tovarlar va xizmatlar bozorining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha metodologik yondashuvlarni takomillashtirish masalalarini tizimli ravishda yoritgan. B. B. Mullabayev [13] O'zbekiston hududlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tahlil qilib, hududiy tafovutlarni qisqartirish mexanizmlarini ishlab chiqqan. B. H. Qo'ziboyev [14] esa mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasining muhim o'rnini asoslab, ayniqsa autsorsing xizmatlarining ahamiyatini ta'kidlagan.

Shuningdek, respublikamiz olimlari tomonidan milliy iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning nazariy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan. Ular iqtisodiy informatika, hisoblash texnikasidan samarali foydalanish, axborot mahsulotlari va xizmatlari marketingini rivojlantirish yo'nalishida muhim ilmiy natijalarga erishganlar. Mazkur tadqiqotlarda mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish va tarkibiy takomillashtirish jarayonlari statistik hamda tizimli tahlil asosida yoritilib, ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning asosiy va umumqabul qilingan metodlaridan samarali foydalanildi. Jumladan, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish hamda xizmatlar sohasining o'rnini chuqur va tizimli o'rganish maqsadida taqqoslash, tahlil va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullari keng qo'llanildi. Ushbu metodlar tadqiqot obyekti har tomonlama tahlil qilish, xizmatlar sektorining mintaqa iqtisodiyotidagi rolini aniqlash, nazariy xulosalarni shakllantirish hamda ilmiy asoslangan yakuniy natijalarga erishishni ta'minladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika ma'lumotlari va amaliy korxonalar hisobotlari o'rganilib, tizimli ravishda umumlashtirildi. Bu esa o'rganilayotgan muammoning nazariy asoslarini mustahkamlash, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish hamda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqotning kvantitativ usullari sifatida statistik tahlil va ekonometrik modellar qo'llanilib, xizmatlar sektorining mintaqa iqtisodiy o'sishiga ta'siri baholandi. Shu bilan birga, kvalitatif usullar — ekspert intervyulari,



case-study metodikasi va SWOT-tahlil — tadqiqotga chuqur amaliy mazmun baxsh etdi hamda mintaqa sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash imkonini yaratdi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida sotsiologik usullar — so'rovnoma va anketalar orqali aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining xizmatlarga bo'lgan talabi va ehtiyojlari o'rganildi. Bu yondashuv xizmatlar sektorining mintaqa iqtisodiyotidagi barqaror rivojlanishdagi ahamiyatini amaliy jihatdan baholashga xizmat qildi.

Shu tariqa, qo'llanilgan metodologik yondashuv mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida xizmatlar sohasining rolini tizimli, ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan qo'llash mumkin bo'lgan tarzda o'rganishga imkon berdi. Natijada tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ta'minlanib, xizmatlar sektorini rivojlantirish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar xizmatlar sohasini rivojlantirish va uning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini kuchaytirish bo'yicha turli metodologik yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mavsumiylik hamda tashqi omillarga bog'liqlik yuqori bo'lishi mumkin, xizmatlar sohasi esa nisbatan barqaror va moslashuvchan rivojlanish xususiyatiga ega. Ayniqsa, bilimga asoslangan xizmatlar — IT, konsalting, moliya va logistika yo'nalishlari yuqori qo'shimcha qiymat yaratish orqali mintaqaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Xizmatlar sohasi orqali mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faol rivojlanadi, bu esa iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvini ta'minlaydi. Diversifikatsiyalashgan iqtisodiy tizim tashqi iqtisodiy ta'sirlarga nisbatan yanada barqaror bo'lib, uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan xizmatlar sohasini izchil rivojlantirish mintaqa iqtisodiyotini mustahkamlashning strategik yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi.

Mintaqada xizmatlar sohasining rivojlanishi bandlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu soha mehnat talabchanligi bilan ajralib turib, turli malaka darajasidagi ishchi kuchi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, ayollar va yoshlar bandligini ta'minlashda xizmatlar sohasi samarali platforma vazifasini bajaradi. Qishloq hududlarida xizmatlar tarmog'ini kengaytirish orqali ichki migratsiya oqimlarini muvozanatlashtirish, aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish imkoniyati ortadi. Natijada mintaqaviy mehnat bozorining muvozanati mustahkamlanadi.

Xizmatlar sohasi mintaqaviy infratuzilmaning rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Transport, aloqa, energetika va raqamli infratuzilma tizimlarining takomillashuvi xizmatlar sohasining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart hisoblanadi. Shu bilan birga, xizmatlar sektorining kengayishi infratuzilmaga bo'lgan talabni oshirib, uni modernizatsiya qilish jarayonlarini jadallashtiradi. Raqamli xizmatlar, elektron savdo va onlayn platformalarning rivojlanishi hududda yangi biznes modellarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa mintaqaning milliy va global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvini kuchaytiradi.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar xizmatlar sohasining muhim harakatlantiruvchi omili hisoblanadi. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va mashinaviy o'qitish (machine learning) texnologiyalarining joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirish va samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Mintaqada darajasida innovatsion xizmatlarning rivojlanishi iqtisodiyotning bilimga asoslangan modelga o'tishini tezlashtiradi. Bu jarayon ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim tashkilotlari va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, innovatsion ekotizim shakllanishiga zamin yaratadi.

Mintaqaning raqobatbardoshligi ham ko'p jihatdan xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Turizm, logistika, moliyaviy va biznes xizmatlari rivojlangan hududlar investorlar va malakali mutaxassislar uchun yanada jozibador bo'ladi. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini ko'paytirib, iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Xizmatlar sohasining hududiy ixtisoslashuvi va diversifikatsiyasi mintaqaning o'ziga xos ustunliklarini shakllantiradi hamda hududlar o'rtasida sog'lom raqobat va samarali iqtisodiy hamkorlik muhitini yaratadi.

Globallashtirish, urbanizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish obyektiv zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Aholi ehtiyojlarining murakkablashuvi va xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi ushbu tarmoq ulushining izchil o'sishini taqozo etadi. Ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan ham xizmatlar sohasi nisbatan kam resurs talab qiluvchi tarmoq sifatida ustunlikka ega.

Shu bois, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasining obyektiv zarurligi, avvalo, uning moslashuvchanligi, innovatsion salohiyati, yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyati hamda ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Mazkur omillar xizmatlar sohasini hududiy rivojlanish strategiyalarining markaziy bo'g'iniga aylantiradi. Shundan kelib chiqib, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasining o'rni va obyektiv zarurligi quyidagi asosiy tavsiflar bilan belgilanadi (1-jadval).

1-jadval. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini o'rni va obyektiv zaruriyati¹

No	Ta'sir yo'nalishlari	Xizmatlar sohasining mazmuni	Mintaqa barqaror rivojlanishiga ta'siri	Obyektiv zaruriyat sabablari
1	Iqtisodiy o'sish	Yuqori qo'shimcha qiymatli xizmatlar (moliyaviy, IT va logistika)	YalIM hajmining barqaror o'sishini ta'minlaydi	Sanoatga nisbatan kam resurs talab qilish
2	Bandlik	Mehnatga talabchan xizmat tarmoqlari	Ish o'rinlari yaratadi va ijtimoiy barqarorlikni oshiradi	Aholi sonining o'sishini ta'minlash
3	Diversifikatsiya	Xizmat turlarining kengayishi	Tashqi xatarlarga bardoshlilikni kuchaytiradi	Xomashyo qaramligini kamaytirish
4	Infratuzilma	Transport, aloqa, savdo va raqamli xizmatlar	Hududlararo integratsiyani kuchaytiradi	Raqamli transformatsiya
5	Innovatsiya	AI, ML va raqamli platformalar	Samaradorlik va sifat oshadi	Texnologik taraqqiyot
6	Raqobatbardoshlik	Turizm, biznes va moliyaviy xizmatlar	Investitsiya jozibadorligi ortadi	Global raqobat
7	Ijtimoiy rivojlanish	Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari	Turmush sifati yaxshilanadi	Aholi ehtiyojlarining murakkablashuvi

Yuqoridagi 1-jadval asosida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasining o'rni va uning obyektiv zarurligi tizimli ravishda yoritilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur jihatlarni quyidagicha izohlash mumkin.

Birinchidan, xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqori qo'shimcha qiymatli xizmatlar — moliyaviy xizmatlar, axborot texnologiyalari, konsalting va logistika yo'nalishlari mintaqaviy yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Ushbu xizmat turlari ishlab chiqarish tarmoqlariga nisbatan kamroq kapital va moddiy resurs talab qilishi bilan ajralib turadi. Shu bois, xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sishni ekologik va moliyaviy jihatdan samarali yo'l bilan ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, xizmatlar sohasi bandlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xizmatlar sohasi mehnat talabchan tuzilishga ega bo'lib, turli malaka darajasidagi ishchi kuchini jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, ayollar va yoshlar bandligini oshirishda ushbu sohaning roli yuqori baholanadi. Bu esa mintaqada ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, xizmatlar sohasining diversifikatsiya funksiyasi mintaqaviy iqtisodiyotni tashqi ta'sirlarga nisbatan barqarorlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Iqtisodiyotning bir yoki ikki tarmoqqa yuqori darajada ixtisoslashuvi tashqi bozorlar kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga sezgirlikni oshirishi mumkin. Xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va xomashyo yo'nalishiga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirish imkoniyati kengayadi.

To'rtinchidan, xizmatlar sohasi mintaqaviy infratuzilmaning rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Transport, savdo, aloqa va raqamli xizmatlar iqtisodiy makonning yaxlitligini ta'minlab, hududlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi. Raqamli xizmatlar rivoji hududiy cheklolarni qisqartirib, biznes subyektlari va aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi.

Beshinchidan, innovatsion xizmatlar sohasi mintaqada innovatsion iqtisodiyot shakllanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish (machine learning), katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli platformalarni joriy etish xizmatlar sifatini oshirish hamda xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa umumiy iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada yuksaltiradi.

Oltinchidan, xizmatlar sohasi mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega. Turizm, biznes xizmatlari va rivojlangan moliyaviy infratuzilmaga ega hududlar investorlar uchun jozibador bo'ladi. Natijada to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib, iqtisodiy faollik yanada jadallashadi.

Yettinchidan, xizmatlar sohasi ijtimoiy rivojlanishning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy va maishiy xizmatlar aholining turmush sifatini yaxshilab, inson kapitalining rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o'sish uchun muhim asos yaratadi.

1 Muallif ishlanmasi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda strategik va tizim hosil qiluvchi o'rin tutadi. Mazkur soha iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash, bandlik darajasini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda innovatsion jarayonlarni faollashtirish orqali hududiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishning obyektiv zaruriyati, avvalo, mintaqaning raqobatbardoshligini yuksaltirish, aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Xizmatlar sektorining yuqori qo'shimcha qiymat yaratish salohiyati, moslashuvchanligi va innovatsion xususiyatlari uni mintaqa iqtisodiy tizimining tayanch yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- mintaqalarda yuqori qo'shimcha qiymatli xizmat turlarini, xususan, IT, moliyaviy va logistika xizmatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;

- xizmatlar sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvini chuqurlashtirish;

- raqamli infratuzilmani kengaytirish hamda elektron xizmatlar ulushini oshirish orqali hududiy integratsiyani kuchaytirish;

- innovatsion xizmatlar ekotizimini shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash;

- xizmatlar sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va mehnat bozorining zamonaviy talablariga moslashtirish.

Umuman olganda, xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik, innovatsion taraqqiyot va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, mazkur sohani izchil va kompleks rivojlantirish mintaqaviy rivojlanish siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stimson, R. J., Stough, R. R., Roberts, B. H. Regional Economic Development: Analysis and Planning Strategy. Berlin: Springer, 2006.
2. Maqnas, F., Shaheen, R. Services Sector-Led Growth Hypothesis: A Fractionally Integrated Heterogeneous Panel Data Analysis for G20 Countries. SAGE Journals, 5 December 2025.
3. Cuadrado-Roura, J. R. Service Industries and Regional Analysis: New Directions and Challenges. Investigaciones Regionales – Journal of Regional Research, No. 36, 2016, pp. 107–127.
4. Stojkoski, V., Utkovski, Z., Kocarev, L. The Impact of Services on Economic Complexity: Service Sophistication as a Route for Economic Growth, 2016.
5. Pike, A., Rodríguez-Pose, A., Tomaney, J. Local and Regional Development. London and New York: Routledge, 2006.
6. Muratalbegov, Andersson, Å. E., Snickars, F. Regional Development Modeling: Theory and Practice. Amsterdam, New York, Oxford: North-Holland Publishing Company, 1982.
7. Родионов, Д. Г. Регулирование развития сферы услуг в крупнейших городах в условиях трансформации российской экономики (на примере Москвы и Санкт-Петербурга). Диссертация. Москва, 2004.
8. Кострюкова, О. Н., Хорева, Л. В., Шокола, Я. В. Состояние и особенности развития сферы услуг в государствах-участниках СНГ: статистическое исследование. Техничко-технологические проблемы сервиса, 2024.
9. Карпова, Г. А. Современный рынок услуг: проблемы и перспективы. Санкт-Петербург: Изд-во СПбГЭУ, 2023.
10. Мачульский, В. А. Регулирование развития сферы платных услуг в системе региональной экономики (на примере Санкт-Петербурга). Диссертация. Москва, 2009.
11. Нурматов, А. Х. Региональные проблемы развития сферы платных услуг в условиях рыночной экономики (на примере Республики Таджикистан). Душанбе, 1998.
12. Xudayberganov, D. T. Tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. Avtoreferat. Urganch, 2023.
13. Mullabayev, B. B. O'zbekiston Respublikasi mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni tartibga solish. Avtoreferat. Urganch, 2024.
14. Qo'ziboyev, B. H. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda outsorsing xizmatlarining tutgan o'ri. Iqtisod va moliya, 2018, №1, 60-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>